

Bo'lajak o'qituvchilarni dars mashg'ulotlarini tashkil etishlarida Flipped Classroom texnologiyasini qo'llashni o'rgatish metodikasi.

Maktabda yuzma-yuz muloqotdan yaxshiroq foydalanish uchun vaqt ajratish maqsadida ma'lumotlarning bir qismini sinfdan tashqariga faol va maqsadli ravishda o'tkazish ko'pincha o'qituvchilar tomonidan yaratilgan onlayn videolar yordamida amalga oshiriladi [1]. Bu esa o'z navbatida, ma'lumotlarni to'plash, hamkorlik qilish va qo'llash uchun dars vaqtidan samarali foydalanishni ta'minlaydi. O'quvchilar kerak bo'lganda istalgan mavzuga darhol va oson kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa o'qituvchiga yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini kengaytirish va boyitish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi[2]. Bunday ta'lim texnologiyasi Flipped Classroom deb ataladi va biz quyida shu haqida batafsil to'xtalamiz.

Quyida **flipped classroom** texnologiyasining afzalliklarini keltirib o'tamiz:

- O'quvchi mustaqil ta'lim olishga o'rganadi.
- Darsda amaliy faoliyat uchun ko'proq vaqt ajratiladi.
- Individual yondashuv imkoniyati oshadi.
- O'quvchilarning faolligi va motivatsiyasi kuchayadi.
- Tanqidiy va ijodiy fikrlash rivojlanadi.

Shuning uchun tadqiqot doirasida bo'lajak o'qituvchilarni dars mashg'ulotlarini flipped classroom texnologiyasi asosida loyihalashga o'rgatish uchun quyidagicha yondashuvni taklif etamiz: Avvalo bo'lajak o'qituvchilar videolar va ta'limiy o'yinlar yaratish kompetensiyasiga ega bo'lishlari kerak.

Video yaratish	Ekranni yozib olish: Camtasia, ScreenPal, ActivePresenter, DemoCreator Matn asosida avtomatik video yaratish: Renderforest, Synthesia, FluxNote, Animaker
O'yin texnologiyalari va onlayn viktorinalar yaratish	Learningapps, Quizlet, Wordwall, Quizizz, audience.ahaslides

Bo'lajak o'qituvchilar yuqoridagi dasturlardan foydalanish haqidagi ko'nikmalarni **teachingtec.uz** da olish imkoniga ega.

Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida dars mashg'ulotlarini tashkil etishda yuqorida qayd etilgan Flipped Classroom texnologiyasidan foydalanishni tavsiya etamiz. Bunda bo'lajak o'qituvchilar darsni mustaqil ravishda o'quv-ma'lumotlarni vizual shaklda yaratib, o'quvchilarga mashg'ulotdan avval tanishib chiqishlari uchun imkoniyat yaratdi. Natijada, o'quvchilarda fanga nisbatani qiziqishi oshadi va kreativ fikrlashi imkoniyati yaratiladi.

“Algebraik ifoda” mavzusidan umumiy o'rta ta'lim maktabida bir soatlik dars mashg'ulotini tashkil etishning texnologik xaritasi

Mavzu: (45 daqiqa)	
Vahti: 45 daqiqa	O'quvchilar soni: 30 nafar
<i>Dars shakli:</i>	<i>Aralash ta'lim</i>
<i>Dars mashg'ulotining rejasi:</i>	1. Internetning ta'limga oid manzillaridagi ma'lumotlarni mustaqil o'rganish orqali “Algebraik ifodalar” mavzusi haqidagi bilimlarga ega bo'lish 2. Turli xil geymifikatsion texnologiyalarda yaratilgan topshiriqlarni bajarish orqali egallangan bilimlarni mustahkamlash
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: o'quvchilarda:.</i>	

<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O‘quv faoliyatining natijalari</i>
1.Mavzu bo‘yicha algebraik ifoda ta’rifi o‘rgatiladi. 2. Flipped Classroom ta’lim texnologiyasi asosida amaliy mashg‘ulot topshiriqlarini ishlab chiqish.	O‘quvchi 1. Mavzu bo‘yicha algebraik ifodalarni o‘rganadilar. 2. Flipped Classroom ta’lim texnologiyasi asosida topshiriqlarni individual bajarish.
<i>O‘rgatish uslubi va texnikasi</i>	“Flipped Classroom” texnologiyasi,
<i>O‘qitish vositalari</i>	O‘quv-axborot platformasi va unda joylashtirilgan elektron resurslar, tarqatma materiallar, slayd.
<i>O‘qitish shakli</i>	Individual, kichik guruhlarda ishlash texnologiyasi.
<i>O‘qitish shart sharoiti</i>	Video proyektor, elektron doska kompyuterlar bilan ta’minlangan auditoriya, internetga ulangan kompyuterlar.
<i>Monitoring va baholash</i>	Pedagogik metodlar yordamida tayyorlangan tarqatma materiallar tahlil qilinib baholanadi.

Quyida “Algebraik ifoda” mavzusini Flipped Classroom metodi orqali tashkil etish haqida to‘xtalib o‘tamiz:

Mavzu: Algebraik ifoda.

Darsining ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarda algebraik ifoda haqidagi bilimlarini rivojlantirish hamda mustahkamlash.

Darsining tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish.

Darsining rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarda tayanch va xususiy kompetensiyalarini rivojlantirish.

Foydalaniladigan texnik va o'quv vositalar: kompyuter va uning qurilmalari, videolavhalar, onlayn nazorat qiluvchi va baholovchi pedagogik dasturiy vositalar.

1-bosqich. Tashkiliy qism: salomlashish, davomatni aniqlash (3 daqiqa).

2-bosqich. O'tilgan mavzuni takrorlash (3 daqiqa): Learningapps dasturidagi moslashtirish metodidan foydalaniladi (1-rasmga qarang).




1-rasm. Learningapps dasturining umumiy ko'rinishi

Dastur orqali tayyor shablonlardan foydalanishimiz yoki o'zimiz yaratishimiz mumkin (teachingtec.uz da batafsil video yo'riqnoma mavjud).

3-bosqich. Asosiy bo'lim. Mavzuga kirish (3 daqiqa). Algebraik ifodalar mavzusining rejasi va tayanch tushunchalar bilan tanishtiriladi.

4-bosqich. Yangi mavzu bayoni (10 daqiqa): O'qituvchi o'quvchilar uchun algebraik ifodalar yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga yo'naltirilgan ma'lumotlarni to'playdi "Flipped Classroom" texnologiyalaridan foydalanish yo'llarini tushuntiradi.

Shu bois, mavzuga oid nazariy ma'lumotlarni berishda global tarmoqning manzillarida joylashtirilgan ta'lim muhitlari: videoroliklar, videoma'ruzalar, virtual stendlar, animatsion effektlar, izohli lug'atlardan foydalaniladi. Quyida Camtasia dasturi asosida yaratilgan video o'quvchilarga dars mashg'ulotidan avval taqdim etilgan. Yangi mavzu bayonida o'qituvchi o'quvchilarni qiziqtirgan savollarga javob beradi.



5-bosqich. Bilimlarni mustahkamlash uchun topshiriqlarga tayyorgarlik ko‘rish (o‘quvchilar 1 daqiqa mobaynida guruhlariga ajratiladi).

6-bosqich. Mavzuga oid topshiriqlar.

6.1. Mavzu yuzasidan nostandart testlarni bajarish (5 daqiqa).

Topshiriq №1. Test nazorati kompyuterlar yordamida qulay avtomatlashtiriladi. Bu pedagogik test o‘tkazishning asosiy afzalliklaridandir. Shu bois, yangi mavzu yuzasidan nostandart testlar interaktiv doskada taqdim etiladi. Ushbu namoyon bo‘lgan testlarga o‘quvchilar javob beradi. Bunda 3 ta guruh uchun tayyorlangan testlar taqdim etiladi.

6.2. Mavzuga oid misollarni bajarish (6 daqiqa).

Topshiriq №2. Har bir guruh uchun alohida misollar avvaldan tayyorlab qo‘yilgan bo‘lib o‘qituvchi tomonidan elektron doskada taqdim etiladi (bunda word dasturidan foydalanish qulay).

6.6. Tezkor savollarga javob berish (5 daqiqa).

Topshiriq №6. Interaktiv doska orqali mavzu yuzasidan savollar beriladi:

1. Algebraik ifoda nima?
2. Algebraik ifoda qachon sonli ifodaga aylanadi?.
3. Algebraik ifodada qatnashgan harflar nimani ifodalaydi?
4. Harfli ifoda va algebraik ifoda tushunchalari bir xilmi?
5. Algebraik yig‘indi nima?.

6. Algebraik ifoda hayotda nimalarni anglatadi?

7. Algebraik ifodaga misol keltiring.

6.7. Keysni bajarish (4 daqiqa).

Topshiriq №7. Interaktiv doskada olingan bilimlar asosida tuzilgan keys savoli namoyon bo'ladi.

Keysni izohlang. Chinor daraxti har yili 15 cm ga o'sadi. Daraxtning hozirgi balandligi 7 m ni tashkil etadi. Shu daraxtni bo'yi a) 20 b) y yildan keyin qancha bo'lishini toping.

7-bosqich. Uyda mustaqil bajarishga oid topshiriqlar berish (2 daqiqa).

8-bosqich. Baholash (3 daqiqa).

Adabiyotlar:

1. The flipped classroom model for college algebra: effects on student achievement// dissertation. 2014y. Colorado.
2. Bennett, B., Bergmann, J., Cockrum, T., Fisch, K., Musallam, R., Overmyer, J., Sams, A., Spencer, D. (2012). The flipped class manifest. The Daily Riff. Retrieved May 4, 2012, from <http://www.thedailyriff.com/articles/the-flipped-class-manifest-823.php>